

УДК:930.2:391(093)

O'ZBEKISTONDA GILAMDO'ZLIK SOHASINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Ra'no Zafarjon qizi XATAMOVA

Tarix fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

Toshkent, O'zbekiston

e-mail: xatamovar16@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda gilamdo'zlik sohasining shakllanishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari arxeologik, etnografik va yozma manbalar asosida tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: gilamdo'zlik, to'qimachilik, bronza davri, Temuriylar davri, Buxoro gilamlari, naqsh, jun, "Kustpromsoyuz", xomashyo.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КОВРОТКАЧЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Раъно Зафаржонова ХАТАМОВА

Доктор философии по (PhD) историческим наукам

Государственный музей истории Узбекистана

Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

e-mail: xatamovar16@gmail.com

Аннотация

В данной статье на основе анализа археологических, этнографических и письменных источников освещены формирование и исторические этапы развития ковроткачества в Узбекистане.

Ключевые слова: ковроткачество, текстиль, эпоха бронзы, эпоха Темуридов, бухарские ковры, узор, шерсть, «Кустпромсоюз», сырье.

Gilamdo'zlik tabiiy-geografik muhit, xo'jalik omillari va etnik tafakkur negizida shakllanib, jamiyatning ijtimoiy munosabatlari, turmush tarzi hamda ramziy irodasini mujassam etgan. Markaziy Osiyo amaliy san'atining ko'p asrlik uzviy bo'lagi bo'lgan ushbu soha an'anaviy tarzda xotin-qizlar mehnati va kasbiy vorislik mexanizmlari asosida rivojlangan [3]. Gilamdo'zlik tarixini o'rganishda arxeologik, etnografik, yozma va texnologik manbalar majmuiga tayaniladi. O'zbekiston hududida qadim ko'chmanchilik an'analari asosida o'ziga xos gilamdo'zlik maktablari uchun qulay zamin yaratilgan.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, bronza davrida chorvachilikning rivojlanishi jun zaxiralari va to'qimachilik hajmining ortishini ta'minlagan. Shu sababli jundan tayyorlangan qoplama buyumlar dastlab chorvachilik xo'jaligining tabiiy davomi sifatida yuzaga kelib, keyinchalik xomashyoni qayta ishlash tajribasi natijasida mustaqil hunarmandchilik xususiyatini kasb etgan [4; 168–181].

Gilamdo'zlik sohasining ilk namunalari chorvachilikning rivojlanishi bilan bog'liq jarayondir [10; 178].

Bronza davrida (mil. avv. IV–II ming yilliklar) Markaziy Osiyo hududlarida, jumladan Xorazmda, chorvachilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Bu davrda qo'y junidan gilam to'qish va mato tayyorlash uchun asosiy xomashyo sifatida foydalanish kengaygan [7; 66-68].

Qabrlardan topilgan to'qima qoldiqlari bu buyumlar kundalik ehtiyojdan tashqari, qadimgi marosimlarda ham o'rin tutganini ko'rsatadi. Hunarmandchilikda mahalliy jun va o'simlik tolalaridan foydalanish iqtisodiy hayotning muhim qismi bo'lgan [2; 71]. Ilk bosqichda to'qimalar yotiq dastgohlarda tayyorlanib, an'anaviy o'zbek gilamlari bir nechta tor bo'lakni birlashtirish orqali jun va paxtadan to'qilgan [8].

Keyinchalik vertikal, ya'ni tik holatdagi to'quv uskunolari vujudga keldi. Bunda esa tugun solish texnikasi murakkablashib borgan. Aynan bronza davrida (mil. avv. III-II ming yillik) oddiy vertikal va gorizontaal to'quv dastgohlari qo'llanilgani taxmin qilinadi.

To'qimachilikning amaliy vazifasi bilan birga badiiy jihatlari ham rivojlanib borgan. Qadimdan o'simlik va minerallardan olingan tabiiy bo'yoqlar nafaqat tashqi bezak, balki buyumlarni turiga ko'ra ajratish hamda ijtimoiy-madaniy ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan. Shu sababli rang berish tajribasi sohaning texnik va badiiy taraqqiyotida muhim omil bo'lgan. Miloddan avvalgi davrda gilamdo'zlik mustaqil san'at hisoblanmay, chorvachilikka bog'liq turmush ehtiyoji sifatida shakllangan. Bu

davrda jun asosiy xomashyo bo‘lib, o‘rchuq toshlari junni qayta ishlash va ip yigirish texnologiyasi qadimdayoq mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

O‘rta (hozir Markaziy Osiyo. – R.X.) Osiyo xalqlari tarixida turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar, jumladan urushlar, ko‘chishlar, talonchilik, qurg‘oqchilik, chorva va yaylovlar tanqisligi kabi holatlar aholining xo‘jalik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu omillar gilamchilikning qisqarishi, ayrim hollarda esa tanazzuliga ham olib kelgan [11].

Qadimgi to‘qimachilik namunalarida uchraydigan geometrik shakllar tasodifiy bezak emas. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida topib o‘rganilgan to‘qima mahsulotlarda uchraydigan romb, uchburchak va chiziqli shakllar o‘z mazmuniga ega bo‘lgan. Romb himoya, farovonlikni anglatgan bo‘lsa, zigzag ko‘rinishidagi chiziqlar hayot davomiyligini anglatgan. Romb, uchburchak, zigzag va turli chiziqli kompozitsiyalar Markaziy Osiyo hududidagi ko‘plab arxeologik materiallarda kuzatiladi. Bu shakllarning uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi ular muayyan madaniy tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lganligini ko‘rsatadi.

YUNESKOning *History of Civilizations of Central Asia* nashrida qayd etilishicha, qadimgi jamoalarda amaliy san’at namunalari orqali jamiyatning diniy qarashlari, tabiat haqidagi tasavvurlari va urf-odatlarini ifoda etilgan [12; 281–294].

Ahamoniylar va ellinistik davrda hunarmandchilik taraqqiyoti. Miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Markaziy Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi turli hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni kuchaytirdi. Bu jarayon mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarining tarqalish doirasini kengaytirdi hamda yangi texnologiya va uslublarning kirib kelishini tezlashtirdi. Biroq tashqi ta’sirlar mahalliy an’analarini siqib chiqarmagan, aksincha ular bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan.

Yunonlik Aleksandr yurishlaridan keyingi ellinistik davrda shaharlarning iqtisodiy mavqei oshib, mahalliy hunarmandchilik, savdo va ishlab chiqarish aloqalari mustahkamlandi. Bu jarayon to‘qimachilik mahsulotlari sifatining yuksalishiga, bezak

usullarining boyishiga va to'qimachilikning mustaqil hunar tarmog'iga aylanishiga turtki berdi [1; 26].

Miloddan avvalgi so'nggi asrlarda savdo yo'llarining kengayishi bilan mahalliy mahsulotlarning bozordagi qiymati ortdi, bunda so'g'd savdogarlari Sharq va G'arb bozorlari o'rtasida muhim vositachi bo'ldilar. Shunday qilib, bronza davridan antik davr oxirigacha bo'lgan bosqichlar tahlili yurtimizda gilamdo'zlikning qaror topishi tasodifiy emasligini, balki chorvachilik, junni qayta ishlash va shahar madaniyati rivojining qonuniy mahsuli ekanligini ko'rsatadi. To'plangan texnologik va badiiy tajribalar keyingi asrlarda gilamdo'zlikning alohida tarmoq sifatida iqtisodiy va madaniy hayotdan muhim o'rin egallashi uchun poydevor bo'ldi.

O'rta asrlarda O'zbekistonda gilamdo'zlik sohasining rivojlanishi. O'rta asrlarda shahar madaniyati, hunarmandchilik va Buyuk Ipak yo'li savdosining yuksalishi gilamdo'zlik taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratdi. Manbalar bu davrda gilam ishlab chiqarish hajmi ortib, mahsulotlar kundalik turmush, marosimlar va savdoda muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Bu davrga kelib besh-kashta, enli-gilam, kiz-gilam, julxurs va joynamoz kabi turlarning keng tarqalishi gilamdo'zlikning badiiy jihatdan takomillashgani hamda sohada muayyan kasbiy ixtisoslashuv shakllanganidan dalolat beradi [16; 52].

Islom madaniyatining Safaviylargacha bo'lgan davrida Eron va Markaziy Osiyo hududlaridan bizgacha hech bir butun va asl gilam namunasi saqlanib qolmagan. Bu Temuriylar davri gilamdo'zlik san'ati tarixini, naqsh va kompozitsiyalar tizimini o'rganishda jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Afinadagi Benaki muzeyida saqlanayotgan kichik bir tukli gilam parchasigina ba'zi tadqiqotchilar tomonidan Eron yoki Markaziy Osiyo maktabiga, xususan Temuriylar davriga tegishli deb keltiriladi. Bu nisbiy beriladi, xolos. Gilam matolarining tez chiruvchanligi, uzluksiz urushlar va sohaga oid ixtisoslashgan tarixiy hujjatlarning kamligi sababli, Temuriylar gilamdo'zligi haqidagi ma'lumotlar asosan o'sha davrga oid

miniatyuralar, yilnomalar, tarixiy siyosiy asarlar va sayyohlik kundaliklariga tayanadi [9; 94].

Oʻrta asrlarda Dashti Qipchoqning koʻchmanchi aholisi chorvachilik bilan birga jun va terini qayta ishlab, kundalik roʻzgʻor uchun kigiz, toʻshama, qop va idishlar tayyorlagan. Bu boradagi xomashyoni saralash, yigirish va toʻqish tajribasi avloddan-avlodga oʻtib, turmushning ajralmas qismiga aylangan.

Xitoy rohibi Syuan Szanning 630-yillarda yozilgan sayohat xotiralarida Samarqand VII asrda nafaqat yirik siyosiy markaz, balki xalqaro savdo va hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida tavsiflangan. Muallif shaharda «turli oʻlkalarning qimmatbaho buyumlari yigʻiladi» deb qayd etadi. Bu holat Samarqandning Buyuk Ipak yoʻli orqali amalga oshirilgan xalqaro savdo munosabatlarida muhim oʻrin tutganligini koʻrsatadi. Mazkur bozorlarda Eron, Hindiston va Badaxshon kabi hududlardan keltirilgan noyob toʻqimachilik mahsulotlari, jumladan, qimmatbaho gilamlar ham muomalada boʻlgan [13; 13].

Manbalarda Samarqand hunarmandchiligining yuqori darajada rivojlanganligi va qoʻshni xalqlar tomonidan namuna sifatida qabul qilinganligi ham qayd etiladi. Bu holat Samarqand ustalarining toʻquv uslublari, ip boʻyash texnologiyalari va bezak anʼanalari mintaqa miqyosida keng tarqalganligini koʻrsatadi. Gilamlarning laʼl, yoqut va marvarid kabi qimmatbaho buyumlar qatorida tilga olinishi esa ularning nafaqat maishiy ahamiyatga, balki yuqori ijtimoiy mavqe va boylik ramzi sifatidagi qiymatiga ham ega boʻlganligidan dalolat beradi [6; 93].

VIII –X asrlarda Abbosiylar xalifaligi davrida “tiroz” atamasi davlat ustaxonalarida tayyorlangan ipak va zardoʻzi matolarga nisbatan qoʻllanilgan. Bunday ustaxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar kufiy yozuvlar va maxsus hoshiyalar bilan bezatilgan [14; 128–130].

Toʻqimachilik ishlab chiqarishining kengayishi natijasida «Bayt at-Tiroz» deb atalgan davlat ustaxonalari shakllangan [5; 13]. Arab tilidagi mazkur atama «naqshli

mato ishlab chiqariladigan uy» ma'nosini anglatadi. Dastlab "tiroz" so'zi "naqsh" yoki «bezakli yozuv» ma'nolarida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik davlat homiyligida tayyorlangan yuqori sifatli to'qimachilik mahsulotlarining umumiy nomi sifatida mustahkamlangan [15; 543–545].

IX–X asrlarda Buxoro shahri Markaziy Osiyoning yirik to'qimachilik markazlaridan biriga aylangan [5; 34–36]. Bu yerda davlat nazorati ostida faoliyat yuritgan to'qimachilik ustaxonalari mavjud bo'lgan. Buxoroda tayyorlangan mahsulotlar nafaqat mahalliy bozorlarda, balki Xuroson va Iroqda ham keng tanilgan. Tiroz matolaridagi kufiy yozuvlar, duolar, hukmdorlar nomlari va madhiy matnlar ularning rasmiy maqomi hamda davlat homiyligida ishlab chiqarilganligini aks ettirgan.

Al-Muqaddasiy tashqi bozorlarga chiqarilgan mahsulotlar orasida ibodat gilamchalari, jun matolar va yerga to'shaladigan to'qima buyumlarni alohida tilga oladi. Mazkur ma'lumotlar IX–X asrlarda Buxoroda jun xomashyosini qayta ishlash va turli to'qima mahsulotlar tayyorlash yuqori darajaga yetganligini ko'rsatadi. Ayni paytda, ushbu mahsulotlarning tashqi bozorlarda talab etilgani ularning muhim eksport tovarlaridan biri bo'lganligini anglatadi. Bu ma'lumotlar Buxoroni o'rta asrlar Markaziy Osiyosidagi yirik to'qimachilik va gilamchilik markazlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

IX–XII asrlarda nafaqat Buxoro, balki Jizzax vohasi ham gilamdo'zlik an'analari bilan tanilgan. Tabiiy xomashyo manbalarining mavjudligi, chorvachilikning rivojlanganligi va muhim savdo yo'llariga yaqinligi ushbu hududda gilamchilikning taraqqiy etishiga zamin yaratgan.

XI–XIII asrlarda Samarqand, Buxoro va Xorazmda hunarmandchilik mahallalarining shakllanishi mahsulot sifati va an'analar barqarorligini ta'minladi. Bu davrda gilamlarda markaziy maydon, hoshiya va medalyon tizimi keng qo'llanilib, soha yuksak badiiy madaniyat darajasiga ko'tarildi. Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Eron to'qimachilik hamda bo'yoqchilik an'alarining mahalliy uslublar bilan

uygʻunlashishi Markaziy Osiyo gilamlarining badiiy qiyofasini boyitdi. Samarqand yirik tranzit va savdo markazi hamda Sharq bilan Gʻarb oʻrtasida muhim vositachi boʻlgani sababli, gʻarb bozorlarida Sharqiy Turkiston gilamlari ham anʻnaviy tarzda «Samarqand gilamlari» nomi bilan yuritilgan.

Amir Temur tomonidan markazlashgan kuchli davlatning barpo etilishi madaniy hayotda, ayniqsa Samarqand shahrining shakllanishida tub burilish yasadi. Harbiy yurishlar davomida Eron va yaqin hududlarning muhim gilamdoʻzlik markazlari hisoblangan Fors, Kirmon, Koshon va Xurosondan eng mohir hunarmand va sanʼatkorlar imperiya poytaxti Samarqandga koʻchirib kelindi. Bu jarayon poytaxtda turli mahalliy uslub va naqshlarning oʻzaro qorishishiga va yangi umumtemuriy uslubning yuzaga kelishiga xizmat qildi.

Temuriylar davrida davlat tomonidan shaharsozlik va hunarmandchilikka qaratilgan eʼtibor ishlab chiqarish tarmoqlarining kengayishini taʼminladi, Samarqand, Buxoro, Hirot va Kesh savdo va hunarning muhim oʻchoqlariga aylandi.

Tarixiy yilnomalarda qayd etilishicha, Samarqandda barpo etilgan muhtasham Bibixonim Jome masjidi ichki bezaklari uchun Bosra va Bogʻdod ustalari maxsus boʻyra va boʻyrasimon toʻshamalar tayyorlagan boʻlsa, Fors va Kirmonlik mohir ustalar masjidning har bir xonasi va mehrobi oʻlchamlariga mos keladigan nafis ipak gilamlar toʻqib berganlar.

Temuriylar davriga oid vaqf hujjatlarida qimmatbaho gilamlarning naqsh tuzilishi, rang tarkibi va ayrim texnik xususiyatlarining batafsil qayd etilganligi alohida ahamiyatga ega.

XVI asrda Markaziy Osiyo va Safaviylar davlati oʻrtasidagi madaniy hamda iqtisodiy aloqalarning faollashishi gilamdoʻzlik sanʼatida ham oʻz aksini topdi. Bu davrda medalyonli kompozitsiyalar, nozik oʻsimliksimon naqshlar va murakkab hoshiya tizimlari kengroq qoʻllana boshladi. Ayni vaqtda Markaziy Osiyo gilamdoʻzligiga xos boʻlgan geometrik naqshlar, aniq kompozitsion tuzilish va oʻziga xos rang yechimlari saqlanib qoldi.

Samarqand qozixonasining XVI asr oxiriga (1588–1591-yillar) oid rasmiy hujjatlar to‘plami — «Majmu’a-yi vasoiq» tarkibidagi meros mulkini taqsimlashga doir dalolatnomalarda gilamdo‘zlik tarixini o‘rganish uchun muhim ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, yirik mahalliy sudxo‘r Tangri Berdi vafotidan keyin tuzilgan mol-mulk ro‘yxatida «futa-i gilim» atamasi qayd etilgan. Bu ibora tuksiz yoki qisqa tukli to‘qima buyum, ya’ni gilam turlaridan birini anglatgan.

Huquqiy hujjatlarda «gilam»ning mulk ro‘yxatlariga alohida qayd qilinishi, uning hajmi va qiymati ko‘rsatilishi mazkur mahsulotning iqtisodiy ahamiyati yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Gilamlar nafaqat maishiy ehtiyojni qondiruvchi buyum, balki mulkiy munosabatlarda muomala obyekti sifatida ham ishtirok etgan. Ular meros tarkibiga kiritilgan, hadya qilingan, sotilgan yoki zarurat tug‘ilganda garov sifatida qo‘llanilgan.

Umuman olganda, IX–XVI asrlarga oid yozma manbalar ilk bosqichda chorvachilik doirasida shakllangan bu mashg‘ulotning keyinchalik ixtisoslashgan shahar hunarmandchiligiga aylanganini ko‘rsatadi. Savdoning kengayishi, mehnat taqsimoti, hunarmandchilik mahallalari va davlat homiyligi natijasida Samarqand, Buxoro, Xorazm va Toshkent kabi markazlarda mahalliy an‘analarga tayangan gilamdo‘zlik muhitlari qaror topdi.

XVI – XIX asrlarda mahalliy gilamdo‘zlik markazlari va bozor munosabatlarining rivojlanishi. Buxoro qadimdan «Madinat at-tujjor» (savdogarlar shahri) nomi bilan mashhur bo‘lib, u yerdagi har bir mahsulot turi uchun alohida ixtisoslashgan rastalar mavjud bshlgan. Bugungi kunda ham shahar o‘zining sharqona bozor koloritini saqlab qolgan holda, qadimiy hunarmandchilik an‘analarini sayyohlarga namoyish etmoqda. Abdullaxon timida joylashgan gilamdo‘zlik rastalari esa Buxoro hunarmandchiligining eng yorqin namunalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Ushbu rastalar nafaqat savdo majmuasi, balki tarixiy-madaniy merosning tirik guvohi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Buxoro gilamdoʻzlik maktabi turkman qabilaviy anʼanalari va shahar hunarmandchilik ustaxonalari oʻzaro uygʻunlashgan xolatda shakllandi. Tabiiy boʻyoqlar asosidagi qizil bezaklar Buxoro gilamdoʻzlik maktabning oʻziga hos belgilaridan biri edi.

Buxoro shahrining oʻzi gilam toʻqish markazi boʻlmagan, balki yirik savdo markazi boʻlgan. "Buxoro gilamlari" deb nom olgan gilamlar asosan Amudaryoning oʻrta oqimi boʻylab joylashgan qishloqlarda toʻqilgan [16; 50]. Buxoro xonligi hududlari Karki va Bashir gilamlari umumiy qilib "Buxoro gilamlari" deb sotilgan [8; 35].

"Buxoro gilami" atamasi xalqaro bozorda keng qoʻllanila boshladi. Hatto ayrim turkman gilamlari ham "Buxoro gilami" ostida savdo qilingan. Shunga qaramay, Buxoro gilamdoʻzlik maktabi mahalliy uslubidagi gul maydoni va qizil fonni saqlab qoldi. Bozor talabiga qarab rang palitrasi va oʻlchamlarda ayrim oʻzgarishlar boʻlgan boʻlsa ham anʼanaviylikni saqlab qoldi. Toshkentda 9 xil gilam turi farqlangan. Ulardan 8 tasi Buxoro hududida ishlab chiqarilgan.

Gilamlarni davrlashtirishda asos boʻlgan iplarining tuzilishi muhim ahamiyatga ega. XIX asr oʻrtalarigacha qoʻlda yigirilgan 3–4 tolali paxta ishlatilgan boʻlsa, 1850-yildan keyin Hindistondan mashinada yigirilgan koʻp tolali 6–8 tadan iborat sanoat iplari kirib kelgan [13; 34].

Oʻzbekiston hududida gilamdoʻzlik bilan oʻtmishga koʻchmanchi boʻlgan xalqlar dashti-qipchoq oʻzbeklari, Nurota hududidagi turkman-oʻzbeklar, qoraqalpoqlar va arablar shugʻullangan [9; 51].

Xorazmning Qoraqalpogʻiston, Turkmaniston va Eron bilan iqtisodiy va savdo aloqalari gilam mahsulotlarining keng muomalaga chiqishiga sharoit yaratdi. XIX asrda Sovet Rossiyasi bozoriga chiqishi natijasida ayrim oʻlcham va ranglarida oʻzgarishlar boʻlgan boʻlsa ham, anʼanaviyligini saqlab qoldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva va Qoʻqon xonliklarida yogʻoch hamda metall oʻymakorligi yuqori bosqichga koʻtarildi. Shu davrda oʻlkaga Rossiya

kapitalining kirib kelishi va fabrika tovarlari raqobati natijasida misgarlik hamda kulolchilik kabi an'anaviy sohalarda inqiroz kuzatildi. Shunga qaramay, turkman gilamlari, Samarqandning ipak matolari va Shahrisabz hunarmandlarining gilamdo'zlik namunalari o'z badiiy qiymatini saqlab qolib, xaridorgir eksport tovarlari sifatida qadrlanishda davom etdi.

XIX–XX asrlar Markaziy Osiyo gilamdo'zlik sohasi uchun katta o'zgarishlar davri bo'ldi. Faoliyat yuritib kelayotgan ustaxonalar endi ichki va tashqi bozor uchun ham mahsulot yetkaza boshladi. Zamonaviy texnologiyalar va fabrika dastgohlari kirib kelishi orqasidan davlat tomonidan nazorat joriy qilindi. Bu jarayonda Buxoro va Xiva gilamdo'zlik maktablariga sanoatlashish katta ta'sir ko'rsatdi. Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli ishlab chiqarish hajmi ma'lum davrlarda pasaygan bo'lsada, XIX asr – XX asr boshlariga oid to'qimachilik buyumlari va an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlari o'z badiiy qadrini saqlab qolgan.

XIX asr oxirida savdogarlar tezroq va ko'proq foyda olish uchun gilamdo'zlarni arzon xomashyo va kimyoviy bo'yoqlardan foydalanishga majbur qilgan. Bu esa gilamlarning badiiy qiymatini tushirib yuborgan.

XIX asr o'rtalarida asosan gilamdo'zlik yarim ko'chmanchi o'zbeklar orasida saqlanib qolgan bo'lib, faqat Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on va Samarqand atroflaridagi aholining 25 foizi gilamdo'zlik bilan shug'ullangan.

Bunga sabab Markaziy Osiyoning turli hududlarida gilamdo'zlik hunarmandchiligi o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar ta'sirida turlicha inqiroz bosqichlarini boshidan kechirganini ko'rsatadi. Qirg'izistonda gilamdo'zlik sohasining pasayishi va qayta tiklanish bosqichlari maxalliy chorvachilik xo'jaligining o'zgarishi, ya'ni yaylov maydonlarining qisqarishi, aholining o'troq turmush tarziga o'tishi, qo'ychilikning qisqarishi va paxtachilikning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Sohaning uzil-kesil inqirozga uchrashiga esa fuqarolar urushi, umumiy qashshoqlashuv hamda ishlab chiqarish jarayonining majburiy ravishda uzoq vaqt to'xtab qolganligi sabab bo'ldi. 1920-yillarning oxiriga kelib (so'nggi 2–3 yilda) sohani qayta tiklash asosan xususiy tashabbus evaziga boshlangan bo'lsada, aholi tomonidan mahalliy chorvadorlar shirkatlariga topshiriladigan jun xomashyosining yetishmasligi jarayonni sezilarli darajada sekinlashtirdi. O'zbek tumanlarida patli gilamdo'zlik an'analari allaqachon to'xtagan bo'lib, bu holat qisman Qirg'iziston mahsulotlari raqobati, asosan aholining o'troqlashuvi va ekin maydonlariga birlashtirilishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasidir.

Amudaryo havzasi bo'yida joylashgan Bashir, Moqon, Qizil-Ayak, Qanot qishloqlari ilgari o'z mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan bo'lsa ham ishlab chiqarish keskin qisqardi yoki butunlay to'xtadi. Bu hududlardagi gilam to'qish an'anasining kamayishining bosh sababi turkman qabilalarining Amudaryoning chap qirg'og'idan Afg'oniston hududiga ommaviy ko'chib o'tishidir. Muhim jihati shundaki, asosan gilam mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchilari hisoblangan eng badavlat xo'jaliklar mamlakatni tark etgan.

Ostonabobo qishlog'i aholisining 40 foizi, Qizil-Ayak qishlog'i aholisining esa taxminan 70 foizi (2000 ta oiladan bor-yo'g'i 700 tasi qolgan) Afg'onistonga ko'chib ketgan, bu kabi kuchli emigratsiya jarayonlari boshqa yondosh tumanlarda ham qayd etilgan.

XX asr anilin bo'yoqlarining kirib kelishi tabiiy rang palitrasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tabiiy bo'yoqlar bilan birga sintetik tuslar qo'llanila boshlandi. Natijada ayrim gilamlarda yorqin, ba'zan nomuvofiq ranglar uyg'unligi kuzatildi. Ishlab chiqarish tezligi oshdi, narxlar nisbatan pasaydi.

Shunga qaramay, gilamdo'zlik texnikasida tugunlar qo'llanishi davom etdi, hunarmandchilik ustaxonalarida oilaviy faoliyat yuritib, avloddan-avlodga o'tuvchi hunar sifatida rivojlanib bordi. XX asr o'rtalari muzeylashtirish va ilmiy katalogni yaratish boshlanishi natijasida an'anaviy gul va geometrik kompozitsiyalar qayta

tiklana boshladi. An'anaviy maktablar qayta shakllantirildi. Endi gilam mahsulotlaridagi milliy naqshlar zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashtirilib ishlab chiqarila boshladi. Bu jarayon madaniy merosni saqlash bilan birga bozor talabiga moslashishni ta'minladi.

XX asrga kelib gilamdo'zlik sohasiga hukumat tomonidan katta e'tibor berila boshlandi.

XX asr boshidagi xomashyo tanqisligi va Andijon tumanidagi inqiroz Markaziy Osiyoda gilamdo'zlik sohasining inqirozi XX asrning birinchi choragida yanada chuqurlashdi. Hali chor Rossiyasi davrida o'tkazilgan 1906-yilgi gilamdo'zlik tadqiqotlaridayoq mahalliy hunarmandchilik uchun xomashyo (jun) yetishmasligi ko'rsatkichi 100 foizni tashkil etganligi qayd qilingan edi.

Keyinchalik, 1917-yilgi voqealar, fuqarolar urushi va Farg'ona vodiysidagi siyosiy-harbiy beqarorlik Andijon tumanida gilam va palos ishlab chiqarishning deyarli butunlay to'xtab qolishiga olib keldi. 1920-yillarning ikkinchi yarmiga kelib Andijonda gilamdo'zlikni qayta tiklash jarayoni mahalliy aholining o'z-o'zidan paydo bo'lgan tashabbusi evaziga emas, balki bevosita sanoat kooperatsiyasi – "Kustpromsoyuz" (Hunarmandchilik ishlab chiqarish ittifoqi) tashkilotining alohida g'amxo'rliqi, tashkiliy yordami va maqsadli harakatlari evaziga asta-sekin qayta shakllana boshladi.

Urush yillarida sezilarli darajada so'ngan hamda inqirozga uchragan Markaziy Osiyo gilamdo'zligini qayta tiklash va yuksaltirish bosqichining boshlanishi, shak-shubhasiz, joylarda "Kustpromsoyuz" tashkilotlarining amaliy faoliyati va institutsional aralashuvi bilan bog'liqdir. Ushbu tashkilot sohani rejali xo'jalik yuritish tizimiga o'tkazish, hunarmandlarni artellarga birlashtirish, ularni xomashyo hamda bo'yoqlar bilan markazlashgan holda ta'minlash, shuningdek, avans berish tizimi orqali mahsulot ishlab chiqarishni tiklashda asosiy institutsional omil bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. — Москва, 1963.
2. История народов Узбекистана. Т.1. — Ташкент, 1950.
3. Мошкова Б.Т. Ковровые изделия, Эрсари и др. письмен. материалы о Аму-Дарье. — Москва, 1960.
4. Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ Средней Азии. — Ленинград: Наука, 1976.
5. Наршахий. Бухоро тарихи /Форс тилидан А. Расулев таржимаси Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. — Тошкент, 1966.
6. Сулайманова С.Б. Илк ўрта асрларда Суғд шаҳарлари шаҳарсозлиги // Марказий Осиё цивилизация тизимида Ўзбекистон тарихи ва маданияти: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари (2022 йил 14 май). — Қарши, 2022.
7. Толстов С. П. Древний Хорезм. — Москва: МГУ, 1948.
8. Фелькерзам А. Е. Старинные ковры Средней Азии. — Петроград: Типография Товарищества «Р. Голике и А. Вильборг», 1915.
9. Шахло Д. Темурийлар даври гиламдўзлик санъати // Буюк Хуросон хунармандчилиги журнали. — 2025. — Т. 2. — № 8.
10. Ўзбекистон миллий архиви, Р-3-фонд, 1-рўйхат, 403-йиғмажилд, 178-варақ.
11. Ўзбекистон миллий архиви, Р-3-фонд, 1-рўйхат, 403-йиғмажилд, 178-варақ.
12. UNESCO. History of Civilizations of Central Asia. Vol. I: The Dawn of Civilization: Earliest Times to 700 B.C. — Paris: UNESCO Publishing, 1992.
13. Sabahi, Taher. Samarkanda: Tappeti dalla Via della Seta / Carpets from the Silk Road. Vicenza: Tipografia Rumor Editrice, 1995.
14. Bloom J., Blair S. Islamic Arts. — London: Phaidon, 1997.

15. Bosworth C.E. ʿIrāz. — In: The Encyclopaedia of Islam. Vol. X. — Leiden: Brill, 2000.

16. Elmira Gul, "The Magic of the Woolen Threads in the Uzbek Carpet",
O'ZBEKISTON HAVO YO'LLARI.